

INNOVATSION SIYOSAT YURITISHDA YOSHLARGA TOZA EKOLOGIK MUHITNI YARATISH YOSHLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING ASOSIY SHARTI

*Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna,
Andijon davlat tibbiyot instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.*

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda ularga toza ekologik muhitda yashash huquqini yaratib berish maqsadida davlat siyosatining innovatsion yondoshuvi masalalari bayon qilingan. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda ularni toza ekologik muhitda yashash huquqini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Atrof-muhit muhofazasiga barcha mas'ul, ya'ni davlat va nodavlat tashkiloti, o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlari, keng jamoatchilik, jismoniy va yuridik shaxslarning ushbu sohada burch va majburiyatlari Qomusimiz va normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: yoshlar, tabiat, atrof-muhit, muhofaza, qonun.

СОЗДАНИЕ ЧИСТОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ – ГЛАВНОЕ УСЛОВИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье раскрыты вопросы инновационного подхода государственной политики в сфере социальной защиты молодежи с целью дать ей право жить в чистой экологической среде. Обеспечение их права жить в чистой экологической среде играет важную роль в социальной защите молодежи. Обязанности и обязательства всех лиц, ответственных за охрану окружающей среды, то есть государственных и негосударственных организаций, органов самоуправления, предприятий, учреждений, организаций, населения, физических и юридических лиц в этой области определены в нашем Кодексе и нормативных правовых документах усиленный.

Ключевые слова: молодежь, природа, окружающая среда, защита, закон.

CREATION OF A CLEAN ECOLOGICAL ENVIRONMENT FOR YOUTH IN THE IMPLEMENTATION OF INNOVATION POLICY IS THE MAIN CONDITION FOR THE SOCIAL PROTECTION OF YOUTH

Abstract. The article describes the issues of the innovative approach of state policy in social protection of young people in order to give them the right to live in a clean ecological environment. Ensuring their right to live in a clean ecological environment plays an important role in the social protection of young people. Duties and obligations of all those responsible for environmental protection, state and non-state organizations, self-governing bodies, enterprises, institutions, organizations, the general public, individuals and legal entities in this area are defined in our Codex and regulatory legal documents. reinforced.

Keywords: youth, nature, environment, protection, law.

KIRISH. Respublika Konstitutsiyasining 49-moddasida, "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi"[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Konstitutsiyaga asosan, "15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o'rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda. Qabul qilingan hujjatlar atrof-muhit ob'ektlarining ifloslanish darajasini ma'lum darajada kamaytirish, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlarni milliy ekologik muammolarni hal etishga jalb qilish imkonini berdi"[2].

Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad: “inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlarini yo‘lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish; ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat ob‘ektlari xilma-xilligini saqlab qolish; ekologiya xavfsizligini ta‘minlash; tabiat ob‘ektlari bilan bog‘liq moddiy madaniy meros ob‘ektlarini asrab qolishdir”[3].

Shuningdek, “atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo‘lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi”[4].

Respublikada aholi yashaydigan hududlarni toza saqlash, maishiy chiqindilardan vaqtida tozalash, fuqarolarni toza atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini himoya qilish, hududlarda obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

“Respublikamiz shahar va tuman markazlaridagi turar joy mavzellarida tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida 14 mingdan ortiq chiqindi to‘plash punkti tashkil etildi va 10 mingdan ziyod konteyner o‘rnatildi. Kompleks tadbirlar va dasturlarni amalga oshirishga davlat byudjetidan 343,1 milliard so‘m yo‘naltirildi va tijorat banklarining 20 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlari jalb etildi”[5].

“Iste‘molchilarga sanitariya jihatidan tozalash xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha normativ-huquqiy baza takomillashtirildi[5]. “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorning qabul qilinishi”[5] toza ekologik muhitni yaratish, sanitariya qoidalariga rioya qilish atrofni obodonlashtirish orqali aholiga qulay yashash muhitini yaratishdan iborat.

Respublikada toza ekologik muhitni yaratish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va hayotga tadbir etildi. “2017-2021 yillarda chiqindi bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirishni yanada kuchaytirishga qaratilgan[5] dastur va loyihalar tasdiqlandi.

“Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish va mazkur dasturlar amalga oshirilishini nazorat qilish, muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida Respublika komissiyasi tashkil etildi. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturni moliyalashtirish uchun 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘”[5] yo‘naltirildi.

“2017-2019 yillarda chiqindilarning hosil bo‘lishi, to‘planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko‘milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiyalarining moddiy-texnik jihozlanishi parametrlari”[6] tasdiqlandi.

Avtomobil yo‘llarini arxitektura tizimi va sifatini oshirish, yo‘llarni kengaytirish, tozalikni saqlash, yo‘l chekkalarini manzarali daraxt va gulzorlar bilan obodonlashtirish “yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha zamonaviy talablar bilan chambarchas bog‘liq holda yagona tizimli va kompleks yondoshuvni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi zimmasiga avtomobil yo‘llariga tutash hududlarni ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish borasida qo‘shimcha vazifalar va funksiyalar”[7] yuklatildi.

“Davlat ekologiya qo‘mitasining mazkur sohaga investitsiya kiritish uchun qulay sharoit yaratish orqali maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatiga tadbirkorlik sub‘ektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida jalb”[8] qilindi.

“Respublika shahar va tumanlarida sanitariya jihatidan tozalashning mutlaqo yangi tuzilmasi yaratildi. Barcha joylarda davlat-xususiy sheriklik sharoitida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda chiqindilarni to‘plash, tashish va qayta ishlash klasterlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi chiqindilarni kompleksli boshqarish tizimi joriy”[9] etildi.

Orol muammosi Markaziy Osiyodagi eng keskin ekologik muammo hisoblanadi. Orol dengizining qurishi iqlim sharoitini salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keldi. Yozda o‘ta issiq, qurg‘oqchilikni keltirib chiqarsa, qishda esa izg‘irin, sovuq kunlarni uzaytirib, iqlimni aholi turmush tarziga salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi.

“Orolning qurib qolgan tubidan kuchli shamollar zaharli moddalar bilan to‘yingan tuzlar va chang-to‘zonni havoga ko‘tarishi aholi sog‘ligiga jiddiy xavf solmoqda, surunkali qon kasalliklarini, nafas olish yo‘llari, buyrak, oshqozon-ichak trakti, yurak-tomir tizimi, shuningdek, o‘t pufakda tosh paydo bo‘lishi, onkologiya va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarmoqda”[10].

1992 yil 26 oktyabrda “Orol” ilmiy-tadqiqiy muvofiqlashtirish markazining Nukus bo‘limini qayta tashkil etish to‘g‘risida”[11] gi hukumat qarori qabul qilingan edi. Islohotlar davomida Orol bo‘yi hududlaridagi aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning innovatsion siyosati davom etib keldi.

“Orol dengizining qurib qolgan qismidagi sho‘rlangan yerlarda ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar ko‘lamini kengaytirish, ekotizimni yaxshilash hamda munosib hayot faoliyatini ta‘minlash, tadqiqotlar

va innovatsiyalarning ilg'or tajribalarini joriy etish maqsadida ... O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'y i xalqaro innovatsiya markazi ..., Xalqaro innovatsiya markazi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Orolbo'yida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"[12] ning faoliyati ta'minlandi hamda vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi. Shuningdek, Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi"[13].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Aholiga sanitar tozalash xizmatlarini ko'rsatish ko'lami ortmoqda, shu jumladan hududlarda 174 ta tuman (shahar) filiallaridan iborat 13 ta «Toza hudud» davlat unitar korxonalari tashkil etildi"[14]. Chiqindi to'plashning yangi shahobchalari qurildi, xodimlar bilan ta'minlandi, konteynerlar va chiqindilarni tashish uchun transport vositalari soni ko'paytirildi.

Qattiq maishiy chiqindilar(QMCh)ning atrof-muhitga, yer, suv, o'simlik, hayvonot olamiga salbiy ta'siri katta. "QMChning hosil bo'lishi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlari aholi daromadlari, iste'molchilarning xulq-atvori, bozorda yangicha qadoqlangan mahsulotlarning paydo bo'lishi va demografik ko'rsatkichlar hisoblanadi"[15].

"Hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida QMChning hosil bo'lishining yillik hajmi prognozi 14-14,5 mln tonna atrofida baholanadi. Aholining o'rtacha 1,5 foizga ko'payish sur'atini hisobga olganda esa, ushbu ko'rsatkich 2028 yilga kelib 16-16,7 mln tonnaga yetishi mumkin. Savdo tarmoqlari (supermarketlar, gipermarketlar va boshqalar) sonining aholi jon boshiga YaIM o'sishi bilan bir vaqtda ortishi qadoqlangan mahsulotlar uchun xarid qobiliyatining, pirovardida hosil bo'ladigan QMChning ortishiga olib kelmoqda. Urbanizatsiya ham chiqindilar hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatib, shahar hududlari aholisi qishloq aholisiga nisbatan ko'proq chiqindi chiqaradi"[15].

"2014-2016 yillarda shaharlarda qo'shimcha ravishda sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan 41 ta tashkilot hamda tuman obodonlashtirish boshqarmalarida maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha 157 ta xo'jalik hisobidagi uchastka tashkil etildi"[15].

"2014-2016 yillarda sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va tuman obodonlashtirish boshqarmalarini zamonaviy maxsus texnikalar bilan ta'minlash dasturlari amalga oshirilib, 1427 ta maxsus texnika, shundan 990 ta maishiy chiqindilarni tashish texnikasi xarid qilindi. Respublika shaharlarida va tuman markazlarida, turar joy mavzellarida tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida 14 mingdan ortiq chiqindi to'plash shoxobchalari tashkil etildi va 10 mingdan ziyod konteyner o'rnatildi"[15].

"2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi"[15] tasdiqlandi.

Prezident tashabbusi bilan "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari huzurida 13 ta «Toza hudud» davlat unitar korxonalari va ularning tuman va shaharlardagi 172 ta filiali tashkil etildi; fuqarolar va mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima miqdorlari oshirildi;

2017 yilda aholi yashash punktlarida 2643 ta konteyner bilan jihozlangan 305 ta namunali chiqindi to'plash shoxobchalari qurildi;

284 ta maxsus texnika, shu jumladan 273 ta chiqindi tashish mashinasi sotib olindi"[15].

"2019 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti va viloyatlar mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan chiqindi to'plash shoxobchalarini qurish va ularni konteynerlar bilan jihozlash bo'yicha manzilli dastur, 2020 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti va viloyatlar mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan «Toza hudud» DUKlar faoliyat ko'rsatayotgan amaldagi poligonlarni jihozlash bo'yicha manzilli dastur"[16] tasdiqlandi.

"2019 yilning 1 yanvar holatiga respublika hududida 2,8 mingdan ortiq chiqindi to'plash shoxobchalari va 221 ta poligon faoliyat yuritadi, sanitariya jihatidan tozalash tashkilotlarining avtoparki 3,1 mingtadan ortiq maxsus texnika (chiqindi tashish mashinalari, samosvallar, traktorlar, buldozerlar va h.k.)ni tashkil qiladi"[15].

"Respublika hududida umumiy quvvati yiliga 894 ming tonna QMChni qayta ishlaydigan 183 ta korxonalar, shu jumladan 72 ta polimer plyonka va plastmassani, 65 ta qog'oz va karton buyumlarini, 17 ta shina va rezinotexnika buyumlarini, 10 ta metallni, 6 ta shishani, 2 ta moy va tekstilni, 11 ta boshqa chiqindilarni qayta ishlash korxonalari mavjud. Shu bilan birga respublikaning 9 ta shahrida (Andijon, Nukus, Buxoro, Jizzax, Qarshi, Navoiy, Termiz, Guliston va Urganch) umumiy quvvati yiliga bir million tonnadan ortiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan, QMChni to'plash, tashish, saralash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish bo'yicha klasterlarning tashkil etilishi

QMChning iste'mol qiymatiga ega tarkiblaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir"[15].

Bu borada "kompleks tadbirlar va dasturlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan 343,1 mlrd so'm yo'naltirildi va tijorat banklarining 20 mlrd so'm miqdoridagi imtiyozli kreditlari jalb etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan 2017-2021 yillarda mazkur dasturlarni moliyalashtirish uchun 1,5 trln. so'mdan ortiq pul mablag'lari"[15] yo'naltirildi.

Ushbu sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsiyaviy qulay muhitni yaratish maqsadida "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ..., Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududlarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklikning yangi modelini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi"[16].

Respublikada davlatning innovatsion siyosati natijasida aholi yashaydigan hududlarni toza saqlash, maishiy chiqindilardan vaqtida tozalash, fuqarolarni toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqini himoya qilish, hududlarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Atrof muhitni muhofaza qilish, bu borada huquqbuzarliklarni oldini olish, fuqarolarni toza ekologik muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash maqsadida "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"[17] tasdiqlandi. Konsepsiya bu sohada davlatning innovatsion siyosatini yanada kuchaytirishga, atrof-muhit muhofazasiga institusional yondoshuvni yanada chuqurlashtirishga, respublikadagi barchani konstitutsiyaviy fuqarolik burchiga yanada mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga yo'naltiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrirda. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. –B. 12.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida. 21.04.2017 yildagi PF-5024-son. /<https://lex.uz/docs/3174498>
3. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, 1992 yil 9 dekabr, 754-XII-son. /<https://lex.uz/docs/107115>
4. Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида. 27.12.1996 йил. 353-I-сон. /Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 2-сон, 52-модда; 2003 й., 9-10-сон, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 405-модда; 2013 й., 18-сон, 233-модда; 2017 й., 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.03.2019 й., 03/19/529/2765-сон; 28.09.2020 й., 03/20/638/1333-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.
5. 2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 21.04.2017 yildagi PQ-2916-son. / <https://lex.uz/docs/3174890>
6. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida. 21.04.2017 yildagi PQ-2915-son. / <https://lex.uz/docs/3190804>
7. Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft jihatdan tuzish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 11.09.2017 yildagi PQ-3262-son. / <https://lex.uz/docs/3341294>
8. Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 18.05.2018 yildagi PQ-3730-son. /<https://lex.uz/docs/3741863>
9. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 03.10.2018 yildagi PQ-3956-son. / <https://lex.uz/docs/3930219>
10. 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 30.10.2019 yildagi PF-5863-son. /<https://lex.uz/docs/4574008>
11. O'zMDA. M-37-fond, 1-ro'yxat, 10 yig'ma jild, 234 varaq.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida. 16.10.2018 yildagi PQ-3975-son. /<https://lex.uz/docs/3994101>
13. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik vaziyatni yaxshilash va Orolbo'yi hududining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida. 23.11.2018. PQ-4027-son. /<https://lex.uz/ru/docs/4163173>
14. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish uchun to'lovlarni to'lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 22.11.2018 yildagi PF-5580-son. / <https://lex.uz/>

docs/4072861

15. 2019-2028 йиллар davrida Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида. 17.04.2019 йилдаги ПҚ-4291-сон. /Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.04.2019 й., 07/19/4291/2960-сон

16. 2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 17.04.2019. PQ-4291-son. /<https://lex.uz/docs/4291729>

17. Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 29.09.2020 yildagi PQ-4845-son. / <https://lex.uz/docs/5023628>